

QORAQALPOQ KOMEDIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI MASALASI

Matmuratova R.Z.

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Ijtimoiy va gumanitar fanlarni masofadan o'qitish kafedrasining dotsent
v.v.b., f.i.f.d.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq komediyasining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi. Komediyaning shakllanish manbalari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shu bilan birga, qoraqalpoq komediyasining rivojlanish bosqichlarining davrga xos badiiy-nazariy xususiyatlari umumlashtirildi.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, komediya manbalari, qoraqalpoq komediyasi, adabiy ta'sir, komediya janri taraqqiyoti.

Har qanday xalqda adabiy janrlarning, shu qatorda komediyaning paydo bo'lishida ruhiy madaniyat asosiy manba bo'ladi. Chunki «odamzod paydo bo'lganidan buyon besh xil badiiy san'at u bilan chambarchas bog'liqdir. 1) Me'morchilik – uy qurish, uyni bezash; 2) Rasm – devorlarga va eshiklarga naqsh o'yish; 3) Soz – tovush go'zalligidan foydalanish, musiqa ovozdin rohatlanish, uning tovushidan ruhlantirish; 4) Teatr – turmushdagi odamlar harakatini sahnada ijro etish, ta'sirli so'z va harakatlarni yaratish yordamida odamlarni kuldirish va yig'latish yoki ruhlantirish, aktyorlar yordamida odamlarning cheksiz quvonch va tushkun holatlarini aynan shu holatda tasavvur etish; 5) Adabiyot – odamlarning xuddi shunday holatlarini badiiy so'z kuchi yordamida qog'ozga yozib yoki og'zaki bayon qilish orqali amalga oshirish, til bilan ta'riflab obraz yaratish, so'z yordamida rasm solish». Shularning ichida teatr va adabiyotning mushtarak masalasi bo'lgan komediyaning Yevropa adabiyotida paydo bo'lish manbalari b.e.a. VI-V asrlarda Gretsiyadagi Dionis sharafiga ijro etilgan zavqli raqs ashulalari bilan bog'liq. O'zbek olimi M.Raxmanov O'rta Osiyoda dramaturgiyaning paydo bo'lish manbalarini o'rganish bo'rsida drama janrining dastlabki ko'rinishlari sifatida «Avesto»dagi «Visparad» va «Yasna» qismlariga tegishli sig'inish ashulalarini ko'rsatib o'tadi. «Qadimiy odamlarning tabiat kuchlari bilan kurashi, uning bu tabiat hodisalarini va hayvonlarga sig'inishi, fantastik va mifologik voqealarni hikoya qilish – bularning barchasi insonning fikr va tajribalari, ehtirosi va his-tuyg'ulari bilan bog'liq. Demak, teatr san'atining asosiy belgilaridan birini belgilab beruvchi pantomimik raqslar va kult marosimlarida dramatik elementlarning bor bo'lganligini ko'rsatadi». Bu harakatlar qadimiy esdaliklarda saqlanib qolgan. Ushbu qadimiy esdaliklar orasida b.e.a. I asrga va eramizning III asriga tegishli Tuproqqal'adan topilgan esdaliklar ham keltirilgan. XI asrga tegishli M.Qashg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida xalqning yashash sharoitlari bilan bog'liq vujudga kelgan an'ana va urf-odatlarining keltirilishida ham dramatik unsurlarning uchqunlari ko'rinadi. XIX-XX asrda yozilgan lirik asarlarda ifodalangan qoraqalpoq xalqining an'analari bugungi kunda folklor va mumtoz asarlariga aylandi. Ushbu ashulalarda ko'chmanchi qoraqalpoqlarning to'y o'tkazish marosimi dramaturgiyaning paydo bo'lishida muhim o'rin tutadi. Chunki bu marosimdagi kelin salom, qiz-yigit aytishuvi, baxshi-jirov asarlari dramatik unsurlarni o'zida aks ettiruvchi janrlar ekanligi shubhasiz.

Qoraqalpoq dramaturgiyasining paydo bo'lishiga asos bo'lgan omillardan biri – xalq og'zaki ijodi. Folklor namunalari qoraqalpoq xalqining an'ana va urf-odatlari, milliy psixologiyasini o'zida aks ettiradigan dramaturgik manbalar hisoblanadi. Shu bois dissertatsiyada qoraqalpoq komediyasining shakllanishidagi folklor manbalarini xalq an'analari va folklor namunalari deb ikkiga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qoraqalpoq dramaturgiyasida folklor janrlari komediyaning janriy va badiiy jihatdan shakllanishida asosiy manbalardan biri bo'ldi. Ilk dramaturg A.Utepov dramaturgiyadagi ijodiy yo'lini inssenirovkalar yozishdan boshladi. Uning 1925-30 yillarda yozilgan «Haw, haw, bul kim?», «Jezdejan», «Men hayranman, way-way!», «Aytayin ba, qaytayin ba?» va boshqa bir ko'rinishli yumor va satirik inssenirovkalari mavjud. Ularning aksariyati aytishuv tarzida yozilgan bo'lib, davr talabi asosida dangasalar, g'iybatchilar, lavozimidan foydalanib buzg'unchilik qiluvchilarni fosh qilishga bag'ishlangan. So'ng dramaturgning «Boyawshi wakil», «Bufet» komediyalari, «Guman», «Gulziyba» dramalari yuzaga keldi. Bu badiiy asarlarda folklor an'analari va janrlaridan keng foydalanilgan.

Shu jumladan, ertak, xalq qo'shiqlari va boshqa folklor janrlari qoraqalpoq komediyalarining badiiy jihatdan takomillashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu adabiy jarayonni hisobga olib, komediya janrining shakllanishiga asos bo'lgan folklor janrlari ta'sirini quyidagicha ajratdik: 1) xalq qo'shiqlarining qo'llanilishi; 2) naql-maqol va aforizmlarning qo'llanilishi; 3) kuldirgi so'zlarning qo'llanilishi; 4) ertak syujetlarining ta'siri; 5) mifologik obrazlarning ishtiroki.

Qoraqalpoq dramaturgiyasi tarixida ham badiiy ta'sirlar natijasida yozilgan bir qator komediyalarni ko'rishimiz mumkin. K.S.Stanislavskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat teatri sahnasida 1933 yilda B.Maylinning «Taltangboyning tartibi», 1934 yil U.Gadjibekovning «Arshin Mal-alan», 1939 yilda J.B.Molerning «Skapening nayranglari», 1956 yil «Tartyuf», 1952 yil N.V.Gogolning «Revizor» va shu kabi komediyalarning sahnaga qo'yilishi qoraqalpoq dramaturglarining ijodiy laboratoriyasiga

ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa, «Skapening hiylasi» komediyasi Q.Matmuratovning «Umirbek va Tazsha», H.H.Niyoziyning «Maysaraning ishi» komediyasi S.Xujaniyozovning «Suymegenge suykenbe» komediyalarining yaratilishida katta rol o'ynadi. Feodal munosabatlarni aks ettiruvchi bu komediyalarda umumiylik bor: ularda boy – anqov, uning xizmatkori o'z xo'jayiniga nisbatan ancha aqlli, zukko bo'ladi. Q.Matmuratovning «Umirbek va Tazsha» satirik komediyasida feodal tuzumdagi qoraqalpoqlar hayoti tasvirlangan. Bosh qahramon Umrbekning hamqishlog'i Tovasar boyni zukkolik bilan yengishi kulguli holatlarda yoritilgan. «Skapening hiylasi» komediyasida Skapen Leandr va Zerbinettaning birga bo'lishi uchun boyni aldagan bo'lsa, «Umirbek va Tazsha» asarida kambag'al xalqning manfaati himoya qilinadi.

Qoraqalpoq komediyasining nazariy asoslari, janrning rivojlanish bosqichlarini o'rganish va tahlil qilish bugungi kun qoraqalpoq adabiyotshunosligida dolzarb masala ekanligi shubhasiz. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida komediya janri olimlar tomonidan kam tadqiq qilindi. Ularning ba'zilarida komediyaning nazariy masalalariga san'atshunoslik fani nuqtayi nazaridan e'tibor qaratilgan bo'lsa, ba'zilarida faqat g'oyaviy-tematik va badiiy obraz masalalari o'rganilgan. Bu tadqiqotlar komediyaning janr xususiyatlarini to'laqonli yoritib bera olmaydi, shunga qaramasdan, qoraqalpoq adabiyotshunosligida dramaturgiya janrining paydo bo'lishi va rivojlanish yo'llarini o'rganishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Qoraqalpoq komediyasining tarixi alohida tadqiq qilinmaganligini hisobga olib, komediyaning janr sifatida shakllanish va rivojlanish bosqichlarini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishni biz maqul deb topdik.

1. 1920-50 yillar qoraqalpoq komediyasi
2. 1960-80 yillar qoraqalpoq komediyasi
3. 1990-2010 yillar qoraqalpoq komediyasi

1920-50 yillarda qoraqalpoq komediyasining shakllanishiga va rivojlanish bosqichining boshlanish davrlariga to'g'ri keladi. Bu yillarda asosan badiiy ta'sirlar komediyaning janr sifatida paydo bo'lishiga mezon bo'ldi. Shuningdek, bu davr dramaturgiyasiga xos bo'lgan yana bir omil sifatida folklor janrlarining syujeti asosida bir qancha komediyalar vujudga kelganligini qayd etish mumkin.

1960-80 yillar qoraqalpoq komediyasini komediyaning eng rivojlangan davri deb aytishimiz mumkin. Chunki, qoraqalpoq komediyasidagi shox asarlar aynan shu davrga to'g'ri keladi.

1990-2010 yillar qoraqalpoq komediyasi esa tematik va g'oyaviy jihati bilan ajralib turadi. Bu davr komediyasida jamiyatdagi yuz bergan ijtimoiy muhitning muallif g'oyasiga ta'siri juda katta bo'ldi, insonlar ongining o'sishi komediyadagi voqelik va personajlarning xarakteriga ham ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Мәмбетов К. Қарақалпақ халқының этнографиялық тарихы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1995. – Б. 134.
2. Рахманов М. Узбекский театр. С древнейших времен до 1917 года. – Ташкент: Литература и искусство, 1981. – 30 с.
3. Айымбетов Қ. Қарақалпақ совет драматургиясының тарихынан очерклер. – Нөкіс: ҚКМБ, 1963;
4. Алланазаров Т. Каракалпакский советский театр. Истоки и формирование. – Т.: Фан, 1966;
5. Алланазаров Т. Искусствомыздың таң жұлдызы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1969; Ўша муаллиф: Театр хэм драматургия. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1982;
6. Насруллаев Ә. Жолмурза Аймурзаевтың драматургияси. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1977;
7. Турсынов Б. Драматургия хэм театрымыздың мәселелери. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1988;
8. Турсынов Б. Қарақалпақ драматургиясы хэм театрының раўажланыўына аўдарма пьесалардың тәсири. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1984.
9. Қурамбаев К. Хәмза хэм қарақалпақ әдебий орталығы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1989.
10. Сейтбеков Ә. К.Рахманов дәретиўшилигинде эпикалық хэм драмалық шығармалардың синтези: Филол. илим. филос. д-ри ... (PhD). – Нөкіс, 2020.